




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 3-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net



“Lison ut-tayr” da ko’rsatish, kishilik, o’zlik olmoshlarining semantik-uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish

Tursunova Madina Mòminovna

Navoiy shahar 11-maktab o’qituvchisi

Olmosh guruhiga [men], [sen], [u], [biz], [siz], [ular] kabi shaxsga; [kim], [nima], [bu], [ana], [mana], [mana bu] kabi predmetga; [qanday], [bunday], [shunday] kabi belgiga; [buncha], [shuncha], [qancha] kabi miqdorga; [qachon] kabi paytga; [qayer] kabi o’ringa; [shunday bo’lmoq], [qanday qilmoq] kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksema kiradi. Shuni aytib o’tish joizki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so’zni «almashtirib», uning o’rnida kelavermaydi. Misollar: 1. *Kim mehnat qilsa, u rohat ko’radi.* 2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.* 3. *Nima qilsam ham men o’zim bilaman.* 4. *Hamma mehmonlar biznikida.* 5. *Barcha mushkulotlar oson bo’ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o’zlik olmoshi hech bir so’zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so’z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so’z turkumi ichida «yashirin ma’noli so’z» (zamirlar) sifatida alohida guruhlarga ajratilgan. Chunonchi, [kitob], [daftar], [Abbos] – aniq ma’noli ot bo’lsa, [men], [sen], [kim] – yashirin ma’noli ot (zamid otlar) dir. Yoxud [oq], [qizil], [chiroyli] ĩ ma’lum ma’noli sifat hisoblansa, [bunday], [shunday] kabilar «zamid sifat» dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo’lgan umumiy (mavhum) ma’noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma’no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o’zlari almashtiruvchi so’z kabi morfologik jihatdan o’zgaradi.

Olmosh qaysi so’z turkumi o’rnida qo’llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi. Olmosh ifoda etadigan ishoraviy ma’nosiga ko’ra quyidagi ma’no guruhiga bo’linadi:

1. Kishilik olmoshi.
2. Ko’rsatish olmoshi.
3. O’zlik olmoshi.
4. Belgilash olmoshi.
5. So’roq olmoshi.
6. Gumon olmoshi.
7. Bo’lishsizlik olmoshi.

I. Kishilik olmoshi shaxs olmoshi deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qiladi.

Bizga har g’amdin najot ondin durur

Balki oini hayot ondin durur (31-b.).

Mensiz ermas bir dam oning majlisi,

Tunu kun **menmen** rafiqu munisi (146-b.).

Sendadur ham birliku ham borlig'
Haylig'u qodirlig'u g'afforlig' (20-b.).

Borsen **sen** borlig' zebandasi,
Birliku jabborlig' arzandasi (20-b.).

Barcha olam qushlag'a shoh **ul**,
Holingizdan mo'-bamo' ogoh **ul** (34-b.).

Ul yoqin **sizga**-yu **siz** ondin yiroq,
Vasl – anga oyin, vale **sizga** – firoq (34-b.).

Chun bu yo'ldin erursen barxabar,
Dog'i **biz** berohlarg'a rohbar.

Bizga mushkullar durur bu azm aro,
Kim erur farz oni qilmoq mojaro.

Har birimiz **sanga** arz etmak so'zin,
Ranju mehnatdin xalos etmoq o'zin (90-b.).

Qaysi saydekim, **sen oni** ovlabon,
Qushchi tashlab tabl cholib qovlabon (69-b.).

Dostonda u kishilik olmoshi aksariyat hollarda on tarzida ham ishlatilgan o'rinlar mavjud:

Ko'nglin **oning** maxzani irfon qilib,
Ul tilisim ichra o'zin pinhon qilib (19-b.).

Shaxs olmoshining qo'llanishida ayrim o'ziga xoslik bor. Shaxs o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Yuqorida doston tarkibidan keltirilgan misollarda men, sen, biz, u (ul), ular, siz kabi kishilik olmoshlari qo'llangan.

II. Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmosh ([*bu*], [*shu*], [*mana*], [*ana*], [*u*], [*o'sha*] va boshqa) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nosi uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

– shaxs yoki predmetga ishora qiladi. "Lison ut-tayr"da olmosh so'z turkumi vositasida shaxs yoki predmetga ishora qilingan o'rinlar talaygina. Bunday misollarda u ko'rsatish olmoshi ul tarzida qo'llangan. Masalan:

Ko'ngliga ul qurbdin solg'on g'urur,
Bu ajab mazharni ko'zga ilmag'on (20-b.).

Ul sharaflar birla andoq peshxayl,
Kim ayon aylab takabbur sori mayl (20-b.).

Birga **ul** masjudlig' bergan o'zi,
Birga **bu** mardudlig' bergan o'zi (20-b.).

Ul ne qildi, **bu** ne qildi - **ul** bilur,
Ul bu qilmas, har ne qilsa – **ul** qilur (20-b.).

Naql erur **bu** nav'kim bir kun nabi
Ul xaloyiqqa saodat kavkabi (29-b.).

Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilisim ichra o'zin pinhon qilib (19-b.).

Ish budurkim aylagay qat' **ushbu** yo'l,

Ko'nglining matlubiga yetguncha ul (159-b.).

"Lison ut-tayr" dostonidan olingan yuqoridagi parchalarda qo'llangan ko'rsatish olmoshlari o'rinsiz takrorlarni oldini olib, badiiy jihatdan dostonning mukammalligini ta'minlagan. Ularda asosan shaxsga, belgiga, vaqtga, o'ringa ishora qilish ma'nosi ifodalangan.

III. O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi «ta'kid», «tegishlilik» ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman.* «o'xshatish» ma'nosi ham matndagi o'z so'zi orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi.* «Umumiylik», «noaniqlik» kabi ma'no – *O'zim. (shunchaki)* turdagi gapda ro'yobga chiqadi. "Lison ut-tayr" dostonida ham o'zlik olmoshi juda faol qo'llangan. Ulug' shoir Alisher Navoiy dostonida o'rinsiz takrorlardan qochish, nutqning go'zalligi, jozibadorligini oshirish maqsadida lirik qahramonlar nutqida olmoshlardan o'rinli foydalangan. O'zlik olmoshining bir necha ma'no xususiyatlarini ko'rish mumkin. Masalan:

Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,

Ul tilisim ichra **o'zin** pinhon qilib (19-b.).

Ish erur ulkim, **o'zi oni** qilur,

Hikmat ulkim ham **o'zi oni** qilur (20-b.).

Ham **o'zi** ul birni ma'lul aylagan,

Ham **o'zi** bu birni maqbul aylagan (20-b.).

Onglakim, bu yo'lda qilmaydur iloh –

O'zni ko'rmaklikdin ortug'roq gunoh (162-b.).

O'zni ko'rmak – toatin ko'rmakdurur,

Qilg'onin ko'ngliga kelturmakdurur (162-b.).

Asru **o'z** husnungg'a mag'rur o'lmag'il,

O'z jamoling birla masrur o'lmag'il (47-b.).

Senki nuqson ichra komilsen base,

Olim oytib **o'zni** johilsen base (176-b.)?

O'z kamolidin demaktur mahzi jah,

Jahldin so'z oytqay kim bo'lsa ahl (177-b.)?

Doston matnidan o'zlik olmoshiga keltirilga yuqoridagi misollarda, asosan, ta'kid, tegishlilik ma'nolari ifodalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr. Toshkent:1991. 463 b.
2. Qobiljonova G. Metafora mohiyati. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2007. 6-son. 105 b.
3. Begmatov E. O'zbek nutqi madaniyati masalalari // "O'zbek tili va adabiyoti", 1992, № 4. 103 b.
4. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. Toshkent: Fan, 1997. 115 b.
5. Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili, Toshkent, 2010. 390 b.
6. Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. Toshkent, "O'qituvchi", 1996. 268 b.
7. Mengliyev B., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi, 2005. 230 b.

